

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

RAXIMOV MIRZALI RABBIMOVICH

**BADIIY MATNDA ILOVA KONSTRUKSIYA
STRUKTUR-SEMANTIK MA'NOSINING IFODALANISHI
(nemis tili materiali asosida)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Raximov Mirzali Rabbimovich

Badiiy matnda ilova konstruksiya struktur-semantik ma'nosining ifodalanishi
(nemis tili materiali asosida) 3

Рахимов Мирзали Раббимович

Выражение структурно-семантического содержания просоединительной
конструкции в художественном тексте (на материале немецкого языка) 24

Rakhimov Mirzali Rabbimovich

Expressoin of the structure-semantic meaning of the application construction in the
literary text (based on the material of the German language) 46

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 50

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

RAXIMOV MIRZALI RABBIMOVICH

**BADIIY MATNDA ILOVA KONSTRUKSIYA
STRUKTUR-SEMANTIK MA'NOSINING IFODALANISHI
(nemis tili materiali asosida)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Fil1216 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdhti.uz hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Begmatov Muxtor Begmatovich
filologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponenlar:

Yaxshiyev Ashur Abdiyevich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ro'ziyev Yarash Bozorovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 raqamli Ilmiy kengashning «11» oktyabr 2023-yil soat 12⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (61593 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 233-78-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «21» sentabr kuni tarqatildi.
(2023-yil «26» sentabr da № 85 raqamli reestr bayonnomasi).



I.M.Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

G'.Q.Mirsanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

Sh.S.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda olib borilayotgan izlanishlarda ilova konstruksiyalarning lingvistik mohiyati, ularning badiiy matnda ifodalanishi bilan bog‘liq struktur-semantik xususiyatlar va ularning sintaktik tuzilishini aniqlashga qaratilgan qator muammolar ilmiy tadqiqot ishlarining obyekt bo‘lib kelmoqda. Ma‘lumki, ilova hodisasi o‘zining ko‘p yillik tarixiga ega bo‘lgan grammatik hodisa hisoblanadi, u tilshunoslik fani doirasida muhim va nisbatan kam o‘rganilgan dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Aytish lozimki, ko‘p hollarda ushbu muammo va uning bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab xususiyatlar asosan grammatik nuqtai nazardan tadqiq qilingan, ammo unga bog‘liq bo‘lgan strukturaviy, semantik, tipologik, fonetik va boshqa xususiyatlar matn doirasida juda kam talqin qilingan. Tadqiqot obyektiga tizimli yondashuv asosida ilova konstruksiyalarni badiiy matn doirasida struktur-semantik tahlil qilish, ular ma‘nosining matnda ifodalanish zaruratining yuzaga kelishi mazkur tadqiqot ishining dolzarbligidan darak beradi.

Dunyo tilshunosligida murakkab sintaktik butunlik, sintaktik munosabatlar sohasida namoyon bo‘ladigan jarayonlar, ularni o‘rganish, tahlil qilish bo‘yicha tadqiqotlar doimiy amalga oshirilayotganiga qaramasdan, murakkab sintaktik birliklarning struktur-semantik ma‘nosini matn tarkibida yoyilishi va ifodalanishi masalalari ko‘pgina tillarda to‘liq o‘rganilmagan. Shuning uchun ham, badiiy matnlarda murakkab sintaktik butunlik struktur-semantik ma‘nosining ifodalanishi tadqiqiga zarurat mavjud. Shu jihatdan olib qaralganda, mazkur muammolarni hal qilish uchun tilshunoslikda olib borilayotgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq keng miqyosda islohotlar olib borildi. Ana shunday davrda respublikamiz yoshlarining ta‘lim-tarbiya darajasini yuqori pog‘onaga ko‘tarish, ularning intellektual salohiyatini yanada oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz rivojlanishining tamoyillariga asoslangan holda “... ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, fan va ishlab chiqarish yutuqlarini amaliyotga tadbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish bugungi kunda ustuvor vazifaga aylandi”¹. O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hamma sohalarida fanning rolini oshirish, mamlakatning ilmiy salohiyatini yanada mustahkamlash, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash uchun amalga oshirilayotgan ishlar xorijiy tillarni har tomonlama chuqur o‘rganish, ularni turli yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy jihatdan tadqiq qilishga qaratilgan tadqiqotlar va izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, murakkab sintaktik birliklar ma‘nosining badiiy matnda ifodalanishini tadqiq qilish hamda ularni struktur va semantik jihatdan tavsiflash zarurati mavjudligi ko‘zga tashlanadi.

Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-1947-son Farmoni

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish sifatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va ushbu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tilshunoslik fanida ilova hodisasi, ilova konstruksiyasi masalasi ayrim tadqiqot ishlarida semantik va grammatik ma'no, pragmatik mazmun doirasida R.Pozner, U.Engel, V.Abraxam, V.Shmidt, K.Brinkman tomonidan tadqiq qilingan². Ba'zi olimlar ilova konstruksiyalarni sintaktik aloqaning o'ziga xos turi sifatida tadqiq etishsa³, boshqalari ularning tuzilishi, bajarib kelayotgan funksiyalari, ilova aloqalarning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy matnlarda stilistik jihatdan qo'llanishi kabi masalalar⁴ bo'yicha fikr-mulohazalar bildirgan.

²Posner R. Theorie des Kommentierens Eine Grundlagenstudie zur Semantik und Pragmatik /Linguistische Forschungen Bd. 9 /. Frankfurt/M Athenäum Verlag, 1972.-224 S., Engel U. Deutsche Grammatik. Heidelberg, 1988.- 888 S., Abraham W. Deutsche Syntax im Sprachvergleich. Grundlegung einer typologischen Syntax des Deutschen. Tübingen, 1995. Bd. 41., Schmidt W. Deutsche Sprachkunde. Berlin / Volk und Wissen , 1968 . - 3561 S., Brinkmann H. Die deutsche Sprache. Gestalt und Leistung . Pädagogischer Verlag Schwann, Düsseldorf , 1971. – 939 S.

³Турсунов Б.Т. Присоединение как особый тип синтаксической связи. Автореф. дис. Д-ра филол.наук. СПб., 1993. – 465 с.

⁴Величук А.П. О специфике присоединительной связи в современном русском языке (сочинение и присоединение). Автореф. дис. канд. филол. наук М., 1961. – 16 с., Виноградов А.А. Структура и функции присоединительных конструкций в современном русском литературном языке. Автореф. дис.канд.филол.наук. М.,1984 . -16 с., Гаврилова В.В. Присоединительные конструкции и их стилистическое использование в произведениях современной немецкой художественной литературы. Автореф. дисс... канд. филол. наук. Л., 1969. -21 с., Гайбова М.Т. Присоединительные конструкции и их стилистические функции в художественной прозе (на материале английского языка). Автореф. дисс... канд. филол. наук. М., 1973. -21 с., Бурак Л.И. Присоединение в современном белорусском литературном языке. Автореф. дис. д-ра филол. наук Минск, 1979., Гак В.Г. Коммуникативные трансформации и системность средств логического выделения во французском языке. Филол. науки, 1975, № 5, с. 49-59., Гуляева Э.А. Обособленные оппозитивные конструкции в современном французском языке (в плане грамматического и актуального членения). Автореф. дисс... канд. филол. наук. Киев, 1973. -29 с., Сильман Т.И. Проблемы синтаксической стилистики. Л., Просвещение, 1967. -152 с., Sommerfeldt K.E. Zu einigen Entwicklungstendenzen im Satzbau

Keyingi yillarda hozirgi zamon rus tilida ilova konstruksiyalari bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borildi, masalan, L.Yu.Maksimov⁵ o'zining ishlarida ilova va parsellyasiya hodisalari hamda matnning asosiy belgilarini ko'rsatib beradi. T.L.Vaulina⁶ esa, gazeta tilida ilova konstruksiyalarning struktural, semantik va funksional xususiyatlarini tadqiq qilgan. Nemis tilshunosligida ilova hodisasi, ilova konstruksiyalar muammolari bo'yicha tilshunosh olimlar B.T.Tursunov, B.M.Axmedova, M.B.Begmatov, I.U.Mamasoliyevlar⁷ tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ular o'z tadqiqot ishlarida ilova hodisasini sintaktik aloqaning alohida turi ekanligini ko'rsatib, nemis yozuvchisi L.Feyxtvanger ijodida ilova hodisasi, ikkinchi darajali bo'laklar (to'ldiruvchilar) orqali ifodalangan ilovali elementlarning funksiyalari, ilova konstruksiyalarning hozirgi zamon nemis badiiy adabiyotida stilistik jihatdan qo'llanishi masalalarini tadqiq qilishgan. Tilshunoslikda mazkur sohada olib borilgan yuqorida tilga olingan tadqiqotlar ilova hodisasi muammolarini yechishga katta hissa qo'shgan va bizga ilova konstruksiya struktur-semantik ma'nosining badiiy matnda ifodalanishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish imkonini berdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Samarqand davlat chet tillar institutining "Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishlari" mavzusidagi istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining tarkibiy qismi sifatida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi badiiy matnda ilova konstruksiya struktur-semantik ma'nosini aniqlash va tavsiflash, shuningdek, matn tahlili nuqtai nazaridan guruhlariga taqsimlash xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

ilova hodisasi, ilova konstruksiya, ilovali element, badiiy matn kabi tushunchalarni tahlil qilgan holda tadqiqotning nazariy asosini aniqlash, ilova konstruksiyaning badiiy tahlili asosida ilovali elementlarning struktur xususiyatlarini namoyon qilishini isbotlash;

ilovali elementlar semantik ma'nosining nemis tilidagi badiiy asarlar matnlarida qo'llanish darajasini misollar tahlili asosida dalillash;

hozirgi zamon nemis tili ilova konstruksiyasidagi ilovali elementlar leksik tarkibiga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlash va ularning ilova konstruksiyada sistem-semantik tomonlarini ochib berish;

der deutschen Sprache, //DaF, 1966, Heft 4, S, 34-39, Riesel E, Schendels E, Deutsche Stilistik Moskau, Verlag Hochschule, 1975, -316 S.

⁵ Максимов Л.Ю. Многомерная классификация сложноподчиненных предложений (на материале современного русского литературного языка): монография. Москва: Флинта, 2016. 676 с

⁶ Ваулина Т.Л. Роль лексического повтора в присоединительных конструкциях. Наука – вуз – школа. Сб. научн. труд. молодых исследователей. – Магнитогорск: МаГУ, 2010. – Вып. 15. – С. 182-186.

⁷ Турсунов Б.Т. Присоединение как особый тип синтаксической связи. Автореф. дисс. док. филол. наук. Санкт-Петербург, 1993 – 44 с., Гаврилова В.В. Присоединительные конструкции и их стилистическое использование в произведениях современной немецкой художественной литературы: автореф. дисс... канд. филол. наук. – Л., 1969. – 21 с., Ахмедова Б.М. Лион Фейхтвангер ижодидида илова ходисаси. Номзодлик диссертацияси. – Самарқанд, 1998 й. –187 б., Бегматов М.Б. Тўлдирувчи билан ифодаланган иловали элементларнинг функциялари. Номзодлик диссертацияси. – Самарқанд, 1999. – 145 б., Мамасолиев И.У. Ҳозирги немис тилида илова конструкцияларнинг стилистик – прагматик функциялари. Номзодлик диссертацияси. – Самарқанд, 2022. – 166 б.

ilovali elementlarni struktur-semantik guruhlarga ilova maqsadida ilova konstruksiya tarkibidagi lisoniy birliklar funksional-semantik vazifalarni bajarib kelishni isbotlash.

Tadqiqotning obykti nemis tili badiiy asarlari matnlarida qo'llanilgan ilova konstruksiya tarkibidagi ilovali elementlardan iborat.

Tadqiqotning predmeti badiiy matnda ilova konstruksiya struktur-semantik xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning metodlari sifatida ishda komponent tahlil, tasnifiy tahlil, struktur tahlil, shuningdek, lingvistik tasvirlash metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hozirgi zamon nemis tili ilova konstruksiyasidagi ilovali elementlar leksik tarkibiga xos bo'lgan sistem-semantik xususiyatlarini ochib berish orqali nemis tili badiiy asarlari matnlarida qo'llanilgan ilova konstruksiya tarkibidagi ilovali elementlar semantik ma'nosining qo'llanish darajasi prosodik vositalar hamda sintaktik komponentlarning uyg'unligida hosil bo'lishi dalillangan;

badiiy asarlardagi gap bo'laklari hamda leksik-semantik birikmalarning qo'llanilish samaradorligi ilova konstruksiyasialarni tashkil qiluvchi ilovali elementlarni semantik-strukturaviy guruhlarga ajratish hamda ilova konstruksiya tarkibidagi lisoniy birliklar funksional-semantik xususiyatlarini badiiy matn komponentlari vositasida namoyon qilish orqali aniqlangan;

ilova konstruksiya tarkibidagi ilovali elementlarning asosiy ifoda(gap) yoki uning ma'lum bir komponentga ilova qilinayotgan qo'shimcha ma'noni aniqlashtirish, izohlash, to'ldirish kabi funksional xususiyatlari asosiy ifoda(gap)ga qo'shilayotgan toldiruvchili, holli yoki aniqlovchili ilovali elementlar orqali mazmun boyitishi isbotlangan;

ilova konstruksiya elementlarining tarkibiy qismlari o'rtasidagi sintaktik aloqalarning bog'lovchi so'zlar, tildagi leksik birliklarning takrorlanishi, asosiy ifoda sifatida bosh bo'laklarning kelishi hamda ularning moslashuv, boshqaruv kabi sintaktik aloqalar yordamida kengayishi ilovali elementlarning struktur-semantik guruhlari asosida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ilova konstruksiyaning tahlili asosida ilovali elementlarning struktura jihatdan turlari va xususiyatlari aniqlangan;

tahlilga tortilgan ilovali elementlar semantik ma'nosining badiiy asarlar matnlarida qo'llanish darajasi misollar tahlili asosida ko'rsatib berilgan;

ilova konstruksiyadagi ilovali elementlarning leksik tarkibiga xos bo'lgan xususiyatlari aniqlangan va ularning ilova konstruksiyada sistem-semantik tomonlari o'rganilgan;

ilova konstruksiyaning semantikasi va strukturasi bilan bog'liq tomonlari hamda xususiyatlari tilshunoslik, nazariy va amaliy grammatika, leksikologiya kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarining takomillashuviga yordam berishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy yondashuvlar, tahlil metodlari, yaratilgan nazariyalar va lingvistik konsepsiyalarning qo'llanganligi, tahlilga

tortilgan katta hajmda faktik material va amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining dissertatsiya ishidagi nazariy holatlarga muvofiqligi, tahlil hamda natijalarning asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati amalga oshirilgan tahlillar asosida olingan natijalardan ilova konstruktsiya struktural-semantik tadqiqining keyingi rivojlanishida, shuningdek, boshqa tillar materiallarida olib borilgan izlanishlarda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, oliy ta'lim tizimida "Nazariy grammatika", "Leksikologiya", "Matn tahlili" kabi fanlardan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, "Lingvistik tahlil metodlari", "Matn lingvistikasi", "Zamonaviy lingvistika" kabi maxsus kurslarni o'qitishda, bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalarini yozishda foydalanish mumkinligi orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Badiiy matnda ilova konstruktsiya struktur-semantik ma'nosining ifodalanishi (nemis tili materiali asosida) bo'yicha ilmiy natijalar va xulosalar asosida:

I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli innovatsion tadqiqot loyihasida 10.00.04 –Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Badiiy matnda ilova konstruktsiya struktur semantik ma'nosining ifodalanishi (nemis tili materiali asosida)" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan doktorlik dissertatsiyasining ilmiy natijalaridan foydalanildigan (SamDCHTning 2022 yil 29 noyabrdagi №3351/3002.01 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada mutaxassislik fanlardan axborot-kommunikatsion texnologiyalari yordamida virtual resurslar yaratishda iloval elementlarning ilova konstruktsiya doirasida struktur-semantik ma'nosini tahlil qilish asosida, komponent tahlil, tavsifiy-tahliliy, statistik metodlaridan foydalangan holda "Matnning filologik tahlili", "Badiiy matnning konseptologik tahlili", "O'rganilayotgan til nazariy aspektlari", "O'qish va yozish ko'nikmalari" fanlarida talabalarga nemis tilidagi ilova konstruktsiyalarning ifodalanish usullarini tadbqiq qilish orqali semantik nuqtai nazardan talabalar bilimni boyitishga xizmat qilgan;

dissertatsiyaning ilmiy natijalaridan 2017-2020 yillarda amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturining 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+ CBHE IMEP: "Development of the interdisciplinary master program on computational Linguistics at Central Asian universities" (LASS: "Markaziy Osiyo Universitetlarida kompyuter lingvistikasi bo'yicha magistratura dasturini ishlab chiqish") nomli innovatsion loyihasida foydalanilgan (SamDCHTning 2022 yil 28 maydagi №1361/30.02.01-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada mazkur tadqiqot materiallaridan foydalangan holda o'qituvchi va talabalarining tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik va kompyuter lingvistikasi borasidagi bilimlarini oshirish hamda til tizimi bilan bog'liq

muammolarning amaliy yechimiga qaratilgan va aniq maqsadga yo'naltirilgan dasturlar, shuningdek, matnlarni tahrirlash, kompyuter tarjimasi, elektron lug'atlarini yaratish uchun mo'ljallangan uslubiy konstruksiyalarning struktur-semantik funksiyalari to'g'risidagi mazkur tadqiqot ishi tahlil natijalari nazariy manba bo'lib xizmat qilgan;

ilmiy xulosalardan bir qator teleko'rsatuvlarda, xususan, 2022-yil 6-iyun kuni efirga uzatilgan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining "Assalom Samarqand!", nomli ko'rsatuvining ssenariysini tayyorlashda nemis tili materiali asosida ilova qurilmalarining ajratilgan bo'lak sifatida bajarib keladigan vazifalarini qo'llashda foydalanilgan (O'zbekiston MTRK Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 10-iyundagi №01-12\226-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada ilova elementlari tushunchasi bir qator tillarda bo'lgani kabi ajratilgan bo'lak kabi muhim vazifani bajarishi, nutq jarayonini boyitishi va konkretlashtirish sifatida bir qator lisoniy imkoniyatlarni berishga zamin yaratgan;

hozirgi zamon nemis tili ilova konstruksiyasidagi ilovali elementlar tarkibiga xos bo'lgan leksik – semantik komponentlarning til birliklari yordamida namoyon bo'ladigan matnning mantiqiy mazmunini kitobxon ongiga yetkazib beruvchi struktur-semantik xususiyatlari mavjudligi xususidagi xulosa va yechimlardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyat hududiy bo'linmasi qoshidagi "Sadoqat" ijodiy to'garagi faoliyatida ilova konstruksiyaning struktur-semantik natijalaridan foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyat hududiy bo'linmasining 2022-yil 6-maydagi №53-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqotda yaratilgan ilmiy yangiliklar tilshunoslik fani, xususan, tilning semantik tizimini o'rganishga munosib hissa bo'lib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati yuqori, dissertatsiyadagi nazariy xulosalardan va materiallardan ilmiy izlanish olib borayotgan tilshunoslar uchun nazariy manba sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari ilmiy ma'ruza ko'rinishida 4 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy maqola, shu jumladan, 3 ta ilmiy maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, xususan, 6 ta ilmiy maqola xalqaro va 3 ta respublika nashrlarda, shuningdek, SCOPUS ma'lumotlar bazasiga kiritilgan yuqori impakt faktorli jurnalda 2 ta maqola chop etilgan

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 128 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish. Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga

mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tilshunoslikda ilova hodisasi muammosi”** deb nomlangan birinchi bobning birinchi qismida jahon miqyosidagi lingvistik tadqiqotlarda ilova konstruksiyalarning o'ziga xos xususiyatlari, ikkinchi qismida german tilshunosligida ilova konstruksiyalarning o'rganilishi va uchinchi qismida nemis tilshunosligida ilova konstruksiyasi, uning o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Tilshunoslikning grammatik tushunchalaridan biri hisoblangan ilovali bog'lanishlarga asoslangan murakkab sintaktik butunlik o'zining strukturaviy shakllanishi bilan tizma va parallel murakkab sintaktik butunlikdan farq qiladi. Bu farq eng avvalo, asosiy ifodaga birikib keluvchi ilovali elementlarning intonatsion tugallikka ega bo'lishligi bilan xarakterlanadi va yozma nutqda “nuqta” tinish belgisi qo'yish bilan ifodalanadi. Bunday ilova konstruksiya komponentlari orasida “nuqta” tinish belgisining ishlatilishi, birinchidan, asosiy ifoda funksiyasida keluvchi gapning grammatik jihatdan mustaqilligini ko'rsatsa, ikkinchidan, unga birikib kelgan ilovali elementlarning ham struktural, ham intonatsion jihatdan mustaqil komponent emasligini ko'rsatadi, chunki ular ana shu asosiy ifoda tufayli uning ma'nosini to'ldirish, konkretlashtirish, izohlash maqsadida namoyon bo'ladi. Kontekstdan ajratib olingan gap grammatik mustaqillikni saqlasa ham, kontekstdagi boshqa gaplar bilan bog'liq bo'lgan fikriy tugalligini yo'qotadi. Ilova konstruksiya esa, o'z navbatida, bog'lanishli nutq jarayonida fikriy tugallikni saqlash va uni yuzaga keltirish uchun xizmat qiladi. Chunki, u tuzilishi jihatdan ikki yoki undan ortiq kommunikativ nutq birliklaridan iborat bo'ladi. Kommunikativ nutq birliklari ilova konstruksiyani yoki ilovali munosabatlarga asoslangan murakkab sintaktik butunlikni hosil bo'lishida bevosita ishtirok etadilar. Fikrimizning dalili uchun ba'zi bir ilmiy izlanishlarning xulosalaridan namuna keltiramiz. A.A.Andrievskaya hozirgi zamon fransuz tili materiallari asosida ilova konstruksiyani tahlil qilib, bunday ilova konstruksiyalar murakkab sintaktik butunlikning o'zginasi, deb ta'kidlaydi va uning kommunikativ nutq birliklariga nisbatan Sh.Balli tomonidan olg'a surilgan “tema” va “rema” tushunchalarini qo'llaydi. Shu asosda ilova konstruksiyaning birinchi komponenti, ya'ni asosiy ifoda “tema” tushunchasi bilan, ikkinchi komponenti, ya'ni ilovali element “rema” yoki “rematik” tushuncha bilan belgilanadi. Tema bu yerda harakatning boshlanishi deb tushuniladi, rema esa, uning rivojlanishi, konkretlashuvidir. Bu ikkala tushunchaning ilova aloqalariga asoslangan murakkab sintaktik butunlik komponentlariga nisbatan qo'llanishi ilovali elementning yana bir xususiyatini ochib berishga sabab bo'ladi.

Demak, ilova konstruksiya ikki qismdan, ya'ni asosiy ifoda va ilovali elementdan tashkil topadi. A.A.Andrievskaya tilshunoslikda mavjud bo'lgan “tema” va “rema” tushunchalaridan foydalanib, asosiy ifodaga nisbatan “tema”, ilovali elementga nisbatan “rema” tushunchasini qo'llaydi.

Haqiqatdan ham, ilova konstruksiyaga yoki uning ajralmas qismi bo‘lmish ilovali elementlarga nisbatan berilgan bunday baholar bu hodisaning nihoyatda dolzarb ekanligidan, uning o‘rganilish tarixi uzoq bo‘lishidan qat’iy nazar, hali ham mukammal, har tomonlama to‘la o‘rganilmaganligidan dalolat berib turadi. Shuning uchun ham, germanshunos olim B.T.Tursunov o‘zining doktorlik dissertatsiyasida, “Ilova hodisasi bu bir universal tipologik lingvistik hodisadir, uni tahlil qilaversang, yangi-yangi tomonlari ko‘z oldimizda namoyon bo‘laveradi, buning manbai birinchidan, tilshunos olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari bo‘lsa, ikkinchidan esa, har-xil funksional uslubni o‘zida mujassamlantira oladigan nemis yozuvchilarining badiiy, prozaik-poetik asarlaridir”, deydi.

Ilova hodisasi doirasida aytilgan fikr va mulohazalarni e‘tiborga olgan holda, biz ilmiy tadqiqot ishimizda an’anaviy xarakterga ega bo‘lgan u yoki bu tadqiqot ishlarida doimo tadbiiq qilinib kelayotgan va nihoyat ishimizning mavzusiga monand bo‘lgan terminologik tushunchalardan foydalangan holda ish tutamiz. Maqsadimiz biz tanlagan mavzuga nisbatan qanaqa terminologik tushunchalardan foydalanish emas, balki bu terminologik tushunchalarning lingvistik mohiyatini to‘g‘ri aniqlay olish va uni ko‘zlangan maqsadga to‘g‘ri yo‘naltira olishdan iboratdir. Ba’zi hollarda biz tanlagan mavzu kitobxonga tanishdek, xuddi takrorlanayotgan mavzudek tuyulishi mumkin. Aksincha, unday emas. Ilova hodisasi qariyb yuz yildan ko‘proq vaqtdan beri o‘rganilib kelinayotgan bo‘lsa ham, biroq hozirgi kungacha bironta ham tilda to‘lig‘icha o‘rganilmagan. Hatto, ilova konstruksiyaning eng sodda hisoblangan strukturaviy xususiyatlari ham mavjud bo‘lgan ilmiy manbalarga ko‘ra atroflicha o‘rganilmagan.

Nemis olimi German Paul o‘zining “Deutsche Grammatik” asarining IV tomida nemis tilida predloglar, ularning paydo bo‘lish tarixi, qo‘llanilishi haqida to‘xtalib, predloglarning sintaktik aloqalar, sintaktik qurilmalarni hosil qilishdagi ahamiyati katta ekanligi haqida fikr mulohazalar bildiradi. German Paulning ushbu mulohazasini va uning tadqiqot ishlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: predloglarning bunday xususiyatlari, ularning o‘zgaruvchanligi, matnda keng qo‘llanilishi xuddi ilovali elementlarning badiiy matnlarda yoyilish darajasiga aynan o‘xshash holatni bildirib keladi va yozuvchining individual uslubida matn doirasida namoyon bo‘ladi. B.T.Tursunov bu masalaga ilmiy jihatdan yondashib, quyidagi fikrni bildiradi: “... tilda mavjud bo‘lgan ayrim grammatik kategoriyalarni aniqlashda unga matn nuqtai nazaridan yondashish kerak”.

Ayrim tadqiqotchilar qo‘shma gaplar, murakkab sintaktik butunlik doirasida yuzaga keladigan sintaktik aloqalar, sintaktik konstruksiyalar haqida gapirib, ularni ketma-ket bog‘lanishiga asoslangan sintaktik munosabatlar natijasida hosil bo‘ladigan sintaktik-semantik ma‘noni anglatuvchi grammatik kosntruksiya deb hisoblaydilar. Masalan, R.Pozner, U.Engel, V.Abraham, H.Brinkmann kabi tilshunos olimlar o‘zlarining ilmiy asarlarida o‘z fikr-mulohazalarini bildirib o‘tishgan. Ushbu olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida sintaktik aloqalar, gaplarning bog‘lanish usullari, qo‘shimcha ma‘no bildiruvchi vositalar to‘g‘risida ilmiy fikr va mulohazalar bildiriladi. R.Pozner sintaktik kosntruksiya tarkibidagi ilova

(qo‘shimcha ma’no anglatuvchi bo‘lak) so‘zining ma’nosi haqida fikr bildirib, uni “to‘liqsiz gap” sifatida ajratib ko‘rsatadi. V.Abrahamning ta’kidlashicha, “asosiy ifoda (gap)da ifodalangan fikr ham struktur, ham sintaktik, ham semantik jihatdan to‘liq shakllangan bo‘lsa, bu sintaktik qurilmani ilova hodisasi deb atash mumkin”.

Hozirgi zamon nemis adabiy tilida ham gapda ishtirok etayotgan ayrim ilova konstruksiyalarga alohida ahamiyat berilgan, ya’ni maxsus (ilmiy ishlarning mavzusi qilib) o‘rganilgan. Masalan G.V.Kolshanskiy, L.P.Nesterova, B.T.Tursunov, V.V.Gavrilova, B.M.Axmedova, M.B.Begmatov, I.U.Mamasoliyevlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Ta’kidlash kerakki, biz ilova hodisasini sintaktik aloqaning o‘ziga xos alohida turi sifatida tan olgan tilshunos - olimlar fikrini qo‘llab quvvatlaymiz. Ularning fikricha, ilova konstruksiyasi bog‘lanish usullariga ko‘ra turli hil bo‘ladi, u sintaktik munosabatning alohida ko‘rinishidir. Shunday bo‘lsa-da, ilova konstruksiyalar faqat ularga xos bo‘lgan grammatik shaklga ega emas. Ular sintaktik bog‘lanishning grammatik shakllari sifatida namoyon bo‘ladi ularni yangi mazmun bilan to‘ldiradi, aniqlab keladi.

Masalan: Durch den Schleier des Kalkstaubes starrten schreckverzernte Gesichter. Schwerste Luftminen. (Bredel Willi. Der erste Schuß am Tage der Schlacht. S. 77). Er fühlte, wie sein Körper schläft und ohne Spannung war. Als habe man ihm sämtliche Sehnen durchschnitten. (Reinowski Werner. Zwei Brüder. S. 116). “Ach, Arrestanten haben wir, Genosse Kommandant!” Sechs Soldaten. Und zwei Offiziere. (Reinowski Werner. Zwei Brüder. S. 272). “Du hast wirklich einen herrlichen Platz gewählt. Eine wunderbare Lage”. (Hofe Gunter. Roter Schnee. S. 388). “Wer hat gestern die Seite fünf gemacht? Fragte Felizitas”. “Anette. So, Anette...”. (Thurk Harry. Der Tod und der Regen.S. 25)

Tadqiqot ishining “**Ilova konstruksiyaning struktural ko‘rinishlari**” (**badiiy matn misolida**) deb nomlangan ikkinchi bobida tilshunoslikda matn va matn bilan bog‘liq muammolarning o‘rganilishi, sodda va murakkab strukturali ilovalari elementlar tahlili ochib berilgan.

Tilshunoslikda keyingi o‘n yilliklarda ko‘p sonli ilmiy izlanishlar natijasida matn lingvistikasi sohasida uchta mustaqil fan ajralib chiqdi: matnning umumiy nazariyasi, matn grammatikasi va matn stilistikasi. Ta’kidlash lozimki, tilning grammatikasi avval ham, tildagi turli birliklarni - so‘z, so‘z birikmasi, sodda va qo‘shma gaplarni o‘rgangan. “Matn” tushunchasining paydo bo‘lishi hamda tilshunoslikning yangi-matn lingvistikasining taraqqiy etishi natijasida tilning hajm jihatdan kattaroq bo‘lgan birliklarini, ya’ni matnni o‘rganish imkonini berdi. Buning natijasida, gap qurilishi hajmiga sig‘maydigan grammatik holatlar o‘z talqinini topa boshladi. Ushbu holatlarni o‘rganish matnning umumiy nazariyasining asosiy tushunchalarini, chunonchi, “matn” tushunchasining o‘zi, matnning mazmuni, kommunikativ va struktur birliklari masalalari, semantika va kompozitsiya hamda boshqa muammolarni birgalikda tadqiq qilish lozimligini taqozo qiladi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar matn lingvistikasining predmeti sifatida har qanday matndan tugallangan matnni olishadi. Albatta, bu matnlar o‘z hajmi va sifati bilan

bir-biridan farq qiladi. Har bir matnning tugalligi muallif o'z oldiga qo'ygan maqsad bilan bog'liq. Ushbu maqsad birgina gapdan tortib katta bir roman bilan chegaralanishi mumkin. Shu bois, bunga ham shubha bilan qarash tamoman asossizdir. Shubhalanuvchilar ham gaplar bir-biri bilan o'zaro bog'lanib, katta nutqiy butunlikni tashkil qilishini tan olib, quyidagi ta'rifni berishadi: "Разумеется, само по себе стремление изучать единицы языка более крупные, чем предложения, можно только приветствовать. В этой области действительно сделано еще мало. Вопрос о том, какими средствами те или иные языки "сцепляют" предложения, как за одним предложением следует другое или другие, как они соединяются и как обретаются, как речь одного коммутатора" вторгается или не вторгается в речь другого или других собеседников, - все это как и многое другое, относящееся к взаимодействию предложений в сложном речевом целом, представляет бесспорный интерес".

Keyingi yillarda german tillarida matn lingvistikasi muammolariga bag'ishlangan qator ilmiy-tadqiqot ishlari e'lon qilindi. Bu sohada tilshunos olimlar V.G.Admoni, K.E.Xaydolf, A.I.Domashnev, A.M.Bushuy, B.T.Tursunov va boshqalarning ilmiy izlanishlari e'tiborga loyiq.

Taniqli tilshunos olim B.T.Tursunov o'zining ko'plab ishlarida matnning lingvistik tabiati, ko'plab muammolarning hal etilishida matnning roli va ahamiyati to'g'risida o'z fikr-mulohazalarini bildiradi. U o'zining doktorlik dissertatsiyasida shunday fikrni aytadi: "Ilova hodisasi shunday bir tipologik lingvistik hodisadir, uni tahlil qilaversang, yangidan-yangi tomonlar ko'z oldimizda namoyon bo'ladi, buning manbai birinchidan, tilshunos olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari bo'lsa, ikkinchidan esa, turli funksional uslublarni o'zida mujassamlashtira olgan nemis yozuvchilarining badiiy asarlari - matnlaridir"⁸.

Tadqiqot ishi mavzusini o'rganish jarayonida ko'plab ilmiy ishlarni, badiiy asarlardan olingan misollarni(matnlarni) tahlil qilish natijasida yuqoridagi fikr-mulohazalarni to'liq tasdig'ini topganligiga ishonch hosil qildik. Bu o'rinda Yu.S.Moraruning quyidagi mulohazalarini keltirish lozim: "Sodda strukturaviy konstruksiya (matn)ni tashkil qiluvchi komponentlarning soni har ikkala tomonda ham bir xil bo'lishi kerak, ya'ni bittadan gap yoki sintagmalardan oshmasligi kerak: murakkab strukturaviy ilova konstruksiyani tashkil qiluvchi komponentlar esa, ham ilovali element tarkibida, ham asosiy ifoda (matn) tarkibida ikkitadan kam bo'lmasligi kerak"⁹.

Rus tilshunosi M.V.Lyapon matn va uning lingvistik tabiati bilan bog'liq muammolarni murakkab sintaktik butunlik doirasida talqin etadi. Uning fikr-mulohazalariga, ko'ra matn quyidagi to'rt konsepsiya bo'yicha tasvirlanishi ko'zda tutiladi:

⁸Турсунов Б.Т. Присоединение как особый тип синтаксической связи. Док. дисс. - Санкт-Петербург, 1993,- 465 с.

⁹ Морару Ю.С. О некоторых типах присоединительных конструкций (на материале современного испанского языка) // Грамматические и лексические исследования по романским и германским языкам. - Кишинев, 1982. - С. 106-114.

“Birinchidan, matn - bu jumalarning o‘zaro munosabatlaridan kelib chiquvchi xabardir. Tadqiqotchi uchun matn til hodisalarini o‘rganishda, birdan-bir manbadir.

Ikkinchidan, matn- bu so‘zlovchining nutqiy qobiliyatini yuzaga chiqaruvchi vositadir. Ushbu jarayonda matn tilning nutqda real qo‘llanishini ta‘minlovchi makon vazifasini ham bajarib keladi.

Uchinchidan, matn - bu so‘zlovchining faol nutqiy faoliyati mahsulidir.

To‘rtinchidan, matn- bu til tizimining kommunikativ jarayonda muhim vazifa bajaruvchi eng yuqori pog‘onasidir”¹⁰.

Ilova (qo‘shish, qo‘shimcha qilish) aytilgan gapni to‘ldirish, unga yana bir boshqa fikrni qo‘shishni anglatadi. Aynan ana shu to‘ldirish, qo‘shimcha qilish ilova aloqalarning xususiyatlarini ta‘minlab beradi, ular nutq birliklarining birikib kelishini ko‘rsatadi, bu birliklar to‘liq fikrni shakllantiradi.

Odatda, ko‘p hollarda, ilova konstruksiyalarning komponentlari bir-birlaridan nuqta orqali ajratiladi, ba‘zi tadqiqotchilarning tasdiqlashicha, ilova aloqalar nuqta, nuqtali vergul, tire, qavs va ko‘p nuqta mavjud bo‘lganda ham sodir bo‘lishi mumkin. Ikki va undan ortiq kommunikativ mustaqil nutq birliklaridan tashkil topgan, gaplarni ajratib turuvchi nuqtalariga ega bo‘lgan, mantiqiy-grammatik aloqalar asosida bir butunga birlashgan, nuqta orqali harakat qiladigan murakkab birlik tilshunoslikka oid adabiyotlarda “murakkab sintaktik butunlik” nomini oladi. Masalan: Berndt zog seinen Arm unter Weg. Er stellte sich vor sie hin. “Das hab” ich mir nicht vorgestllt. Allein. Ohne dich.” (Seghers Anna. Das Vertrauen, S. 88).

Tilshunoslik sohasidagi kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ilova konstruksiyalar murakkablashish xususiyatiga ham ega bo‘lishi mumkin. Bunday murakkablashish jarayonida ilova konstruksiya tarkibida asosiy ifodaga birikib keluvchi ilovali elementlarning soni bittadan ortiq bo‘lishi lozim.

Mashhur tilshunos olim M.E.Shafiro mazkur konsepsiyani gapdan ko‘ra yirikroq bo‘lgan sintaktik birliklarga nisbatan ham qo‘llaydi¹¹. U rus tili sintaksisiga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarida “gapni aktual bo‘laklari sifatida ” ilova konsepsiyasini yanada takomillashtirdi, uni yirikroq sintaktik birliklarga nisbatan qo‘llash mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Uning ilmiy xulosasi mazmuni gapning aktual komponentlari “tema” va “rema” ning sodda gaplar tarkibida bajarib kelayotgan funksiyasini ilova aloqalariga asoslangan murakkab sintaktik butunlikning komponentlari bajarib kelayotgan funksiyalariga tenglashtirishdan iborat bo‘ldi. Gapdan yirikroq bo‘lgan ilova aloqaga asoslangan murakkab sintaktik butunlik (matn)ni ifoda etadigan quyidagi misolda yuqoridagi fikrlarni isbotlash mumkin:

“In einem der Zimmer lag ihr Lieblingskind. Heinrich” (Herbert Otto. Zum Beispiel Josef.S. 78).

¹⁰Ляпон М.В.Смысловая структура сложеного предложения и текст. - М., Наука, 1986. – 198 с

¹¹Шафиро М.Е. Соотнесенность присоединённого компонента с компонентами актуального членения предыдущего предложения. Кн.: Вопросы теории и методика изучения русского языка. Изд-во Саратовск. Гос. ун-та. 1965. - С.34-44.

Ushbu matnda bir-biriga grammatik jihatdan bog‘langan komponentlar: asosiy ifoda, ya’ni matnning asosi - „in einem der Zimmer lag ihr Lieblingskind“-tema; ilovali element (qo‘shimcha ma’no beruvchi grammatik komponent)-“Heinrich“- rema o‘z ifodasini topgan. Endi matni yirik tilshunos olim M.E.Shafiro tomonidan bildirilgan ilmiy xulosalarga tayangan holda, tahlil qilib ko‘raylik: matnning asosini tashkil etuvchi birinchi gap „In einem der Zimmer lag ihr Lieblingskind“ biz ta’kidlab o‘tgan konsepsiyaga asosan “tema”ni ifoda etadi. “Tema” ilova aloqalariga asoslangan murakkab sintaktik butunlikning mazmuniy va sintaktik birligini namoyon qiladi. “Tema”ning (In einem der Zimmer lag Lieblingskind) mazmuni undan keyin keladigan rema (Heinrich)ning mazmuni bilan to‘ldiriladi, konkretlashtiriladi.

Remani ilovali elementga tenglashtirish yoki ilovali elementlarni rema funksiyasida talqin qilish ko‘pgina olimlarning diqqat-e’tiborini tortdi. E.A.Referovskaya “rema bu aytilgan fikrga (ma’noga) nisbatan qo‘shimcha ma’no anglatuvchi komponentdir, ya’ni ilovali elementning o‘zginasidir¹², deydi. V.A.Dmitrenko E.A.Referovskayaning fikr mulohazalarini davom ettirib, bu to‘g‘risida shunday yozadi:

“Gapning aktual bo‘laklarga bo‘linishi uning grammatik bo‘linishiga nisbatan ijobiy xarakterga ega, bu yerda rema matnning yakunlovchi, tugallovchi komponent sifatida yuzaga keladi:¹³” Remaga nisbatan keltirilgan fikr-mulohazalar borgan sari kengayib, aniqlanib, to‘ldirilib boriladi, ya’ni rema bu ilovali element, ilovali element esa - bu remaning o‘zginasidir degan tushuncha maydonga keladi. Fikrimizning isboti sifatida N.A.Frolovaning quyidagi xulosalarini keltirishni o‘rinli deb hisoblaymiz: “Ilovali konstruksiya tarkibida ilovali elementlarning kelishi, ularning faqatgina rema funksiyasida kelishini emas, balki, polirema funksiyasida ham kela olishini isbotlaydi”¹⁴. Masalan, -why, sches the most important thing there is. To me. And to you Thomas- ya’ni to me and to you Thomas kabi. Bu narsa matn doirasida o‘z ifodasini topadi.

Tadqiqotchi G.V.Kim o‘z ishlanishlarida shunday fikr-mulohazalarni bildiradi:

“Biz tahlil qilayotgan murakkab sintaktik butunliklar ilova xarakteriga ega bo‘lgan diologik birliklardan tashkil topgan bo‘lib, ularning komponentlari, ya’ni replikalari o‘rtasidagi sintaktik aloqa vositalari o‘zgacha xarakterga ega. Ular murakkab sintaktik butunlik- matn doirasida namoyon bo‘ladi”¹⁵.

Murakkab strukturali konstruksiyalarni tashkil etuvchi asosiy ifodaning soni bilan ilovali elementlarning miqdori baravariga oshishi kerak, ya’ni ikkitadan kam

¹²Реферовская Е.А. Лингвистические исследования структуры текста. -Л., 1983.-215с.

¹³Дмитренко В.А. Сопоставительный анализ сложносочиненных предложений, присоединительных конструкций и их роль в организации текста. // Лингвистические и дидактические исследования германских и романских языков. - Харьков, 1986.- С 21-24.

¹⁴Фролова Н.А. О соотношении парцеллированных конструкций и непарцеллированных предложений на синтаксическом и коммуникативном уровне. // Структура и семантика единицы номинации. -Л. 1967. – С 114-122.

¹⁵Ким Г.В. К вопросу бессоюзных присоединительных конструкций в диалогической речи. // Филологический сборник. - Алма-Ата. 1963.- С 107-114.

bo'lmisligi lozim. Shu o'rinda, ilova konstruksiyalarni strukturaviy guruhlariga ilovada ularning lingvistik mohiyatiga tayanish maqsadga muvofiqdir. Ilova hodisasi, ilova konstruksiya yoki ilova munosabatlar ham ilovali elementlarning aytilgan fikrlarga qo'shimcha ma'no, mazmun berishga qaratilgan lingvistik mohiyatidan kelib chiqadi. Ko'rinadiki, bunday ilovali elementlarning miqdori bittadan ortiq bo'lgan ilova konstruksiyalarni murakkab strukturali ilova konstruksiyalar deb atash lozim. Bu kabi konstruksiyalarga quyidagi misollarni keltirish mumkin. Masalan: Der Streik war gebremst worden. Ohne Panzer. Ohne Besetzung. Von ihnen heraus. (Seghers Anna. Das Vertrauen. S. 387). Es war schon Nacht und hatten etwas mehr getrunken als sonst. Auch auf den unvermühten sich des Sportklubs Chemie. Auf unsere Freundschaft später auf den Schornstein. Und dich (Karl Heinz Küster. Das Gespenst von Black Roze Gastle. S. 124). Er ist in der Nähe der Eldbrücke. Er kaut langsam. Welt er nachdenkt. Über Fanselow. Und über sich (Flegel Walter. Ein Katzensprung. S. 630).

Dissertatsiyaning **“Ilova konstruksiya semantik ma'nosining ifodalanishi”** nomli uchinchi bobida ilovali elementlarning o'ziga xos semantik xususiyatlari, badiiy matnda ilovali elementlar semantik ma'nosining ifodalanishi, ularning nemis yozuvchilarining badiiy asarlari doirasida yoyilishi tahlil qilinadi.

